



ETIKET TUSHUNCHASI VA UNING MULOQOT MADANIYATI TARIXIDA
TUTGAN O'RNI

G.X.Ergasheva

Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tilida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar – affikslar, leksik birliklar, turg'un birikmalarni tilshunoslikning zamonaviy paradigmatlari ko'zgusida o'rganish va muloqot madaniyatini shakllantirishning zaruriy vositalaridan bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik, pedagogik va psixologik mezonlarini aniqlash, etiketlar o'quv izohli lug'ati uchun so'zlikni shakllantirish va leksikografik talqin qilish masalalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, nutqiy etiket, til etiketi, adabiy til, nutq madaniyati, iboralar, ijodiy g'oya, ilmiy o'rganish.

Аннотация: В данной статье рассмотрены лингвопедагогические и лингвистические аспекты создания толкового словаря речевого этикета, которые являются необходимыми инструментами для изучения речевого этикета в узбекском языке - аффиксы, лексические единицы, устойчивые сочетания в свете современных парадигм языкознания, и формирование культуры общения. вопросы определения психологических критериев, формирования словарного запаса и лексикографической интерпретации для учебного толкового словаря ярлыков информация была предоставлена.

Ключевые слова: общение, речевой этикет, языковой этикет, литературный язык, культура речи, выражения, творческая мысль, научное исследование.

Annotation: In this article linguistic, pedagogic, and linguistic aspects of creating an explanatory dictionary of speech etiquettes, which are necessary tools for learning speech etiquette in the Uzbek language - affixes, lexical units, fixed combinations in the light of modern paradigms of linguistics, and formation of communication culture. issues of defining psychological criteria, vocabulary formation and lexicographic interpretation for the educational explanatory dictionary of labels information was provided.

Keywords: communication, speech etiquette, language etiquette, literary language, speech culture, expressions, creative idea, scientific study.

Jahon tilshunosligida nutqiy muloqot, nutqning ijtimoiy ahamiyati, uning vazifalari, nutq odobi, uning nutqiy muloqotdagi o'rni kabi muammolarga juda ko'p e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda tilshunoslarning shaxslararo verbal muloqot va odamlarning bir-biri bilan o'zaro muloqoti muammolariga qiziqishlarining tobora ortib bora'etgani sababli til egalari nutqiy faoliyatining har qanday shaklini hamda ularning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda mamlakatimizda o'zbek tilshunosligining diqqat markazida turgan antropotsentrik tamoyil asosida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika (uning bir qancha turlari: fonopragmatika, morfopragmatika), shuningdek, nutqiy akt



nazariyasi kabi tarmoqlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Natijada fatik muloqot, uning muloqotga kirish, muloqotni saqlab qolish, muloqotni yakunlash kabi ko'rinishlarining ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berish, mulozamat, iltifotni fatik muloqotning bir janri sifatida o'rganish zarurati sezilmoqda. Bu borada «Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi» sifatida tilshunoslikda turli ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajribalar olib borish va o'tkazish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda nutqiy etiket birliklarining o'quv lug'atlarda berish mezonlarini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbek tilida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar – affikslar, leksik birliklar, turg'un birikmalarni tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari ko'zgu-sida o'rganish va muloqot madaniyatini shakllantirishning zaruriy vositalaridan bo'lgan nutqiy etiketlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik, pedagogik va psixologik mezonlarini aniqlash, etiketlar o'quv izohli lug'ati uchun so'zlikni shakllantirish va leksikografik talqin qilish masalalari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat tildan, til madaniyatidan boshlanadi. Tilning mavjud barcha vositalari va ularning imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, to'g'ri foydalangan holda tuzilgan nutq madaniy nutqdir. Nutq madaniyati ana shu tilni, aloqa aralashuv qurolini qanchalik mahorat bilan ishlatishga bo'lgan munosabatdir.

Til etiketi yoki nutqiy etiket salomlashish jarayonida, ruxsat so'ralganda, biron narsa so'rash maqsadida, biror kishiga murojaat qilganda to'g'ri intonatsiyadan foydalangan holda xushmuomilalik bilan ishlatiladigan iboralar va so'zlardir. Muloqot jarayonida ishlatidigan har bir so'z yoki ibora millat madaniyatini ko'rsatib turadigan oyna hisoblanadi. Shunday ekan nutqiy etiket bu jamiyatning, qolaversa millatning bir bo'lagi hisoblanadi va shu bilan bir qatorda o'zgaruvchidir. Biroq, adabiy til zamonaviy tilga nisbatan konservativdir. Bu, til vositalarini tanlash va sinchkovlik bilan tekshirish bilan bog'liq bo'lgan uzoq jarayon hisoblanadi.

Muloqot – insonning jamiyatdagi faoliyatida, o'sishi, turli munosabatlarni o'rnatishida muhim vositadir. Nutqiy etiket esa turli vaziyatlarda suhbatdosh bilan aloqao'rnatish, uni istalgan maqsadda davom ettirish va yakunlash borasidagi turli qoidalar jamlanmasi hisoblanadi. Madaniy aloqa, ko'nikmalarini rivojlantirish uchun nutqiy etiket qoidalari maydonga keladi. Nutqiy etiket birliklari muloqot jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u suhbatdoshning diqqatini jalb etibgina qolmay, nutq egasining individual munosabatini ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Bugungi kunda nutq birliklaridan amaliy foydalanishni ilmiy o'rganish, jumladan, nutq odobiga oid birliklarning pragmalingsvistik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb masala bo'lmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham “Endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilmfanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlantirish” deganda aynan shunday tadqiqotlar zarurligini nazarda tutgan edilar[1].

Tilning mohiyati va jamiyatdagi vazifasini o'rganish har qanday xalqning ma'naviy merosini, boy tarixini, milliy qadriyatlarini, madaniy va ma'naviy boyliklarini, siyosiy jarayonni teran anglash imkoniyatini yaratadi. Til va uning hosilasi bo'lgan nutq kishilik



jamiyatining muhim aloqa vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Nutqda insonning madaniyati, odobi, bilim doirasi, xulq-atvori aks etadi. Bu in'ikos tilshunoslikda "nutqiy etiket" – "politeness" tushunchasi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida "politeness" atamasi o'rta asr lotin tilidagi "silliqlashtirmoq, sayqal bermoq" (to smooth, to polish) ma'nosini anglatuvchi "politus" so'zidan olingan. Mazkur atama XVII asr oxirlari va XVIII asr boshlarida Angliya ilmiy doirasida keng tarqaldi. Nutqiy etiket individual madaniyatga, qadriyatlarga ko'ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta'sirida bolalikdan shakllana boradi.

Keyingi yillarda etiketlarning turli xususiyatlarini o'rganishga e'tibor ancha oshdi[2]. Turli millatlarda nutqiy etiket shu millatning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi tabiiy. Nutqiy etiketning turli qirralari nafaqat tilshunoslar, balki sotsiologlar va madaniyatshunoslar tomonidan o'rganilgan va turli konsepsiyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu masalaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki nutq etiketi turli davlatlar, xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biriga aylanmoqda.

Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlarning ko'rinishlaridan biri. U ko'proq insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala kilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo'yilgan hatti-harakatni taqozo etadi. Etiketning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik fanining ham tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Masalan, "Muomala madaniyati" nomli darslikda "Etiket – muomala madaniyatining zamonaviy ko'rinishi sifatida" o'rganilib, etiketning turlari tahlil etilgan[2].

Etiket keng qamrovli tushuncha bo'lib, u, ma'lum ma'noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Namunaviy nutqning asosiy talablaridan yana biri aytilmoqchi bo'lgan muddaoning tinglovchiga to'g'ri va aniq borib yetishi, ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi hamda bu masalalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo'yiladi, bu esa kommunikativ aspekt muammolaridan hisoblanadi. Nutkiy etiket deyilganda, so'zlashuv odobi qoidalarini tartibga soluvchi milliy, o'ziga xos stereotiplar, suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish, aloqani tanlangan tonallikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilgan formulalari nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 168-174 б.
2. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. докт.... дис.автореферати. – Тошкент, 2000. –46 б.
3. Белов В. Лад: Очерки о народной эстетике. М.: Молодая Гвардия, 1988.



4.Громыко М.М. Традиционные нормы поведения и формы общения русских крестьян XIX в. М.: Наука, 1986.

5.Поликарпов В.С. История нравов России: Восток или Запад. Ростов/Д.: Феникс, 1995.

6.Школа этикета / Авт.-сост. Л.С.Лихачева. Екатеринбург: Средн.-Урал. кн. изд-во, 1997.